

O'ZBEKISTONDA DO'PPIDO'ZLIK MAKTABLARINING O'ZIGA XOSLIGI VA ULARNING AMALYOTDAGI O'RNI

Ashurova Sevara Olimjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati mutahassisligi

magistratura talabasi

Sunatulla Abdirasilov Fayzullayevich.

Ilmiy rahbar: Tasviriy san'at kafedrası professor.p.f.n

Annotatsiya:

Ushbu maqolada bosh kiyim do'ppido'zlik san'atining hunarmandimiz tomonidan qay darajada rivojlanganligi haqida so'z yuritilgan. Shu o'rinda do'ppining milliy madaniyatimizda tutgan o'rni, vazifasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Respublika, xalq, qadiryat, madaniy, meros, tajriba, faoliyat, ijod, ayollar, hunarmandchilik, milliy, san'at, rivojlantirish, libos, kashta, do'ppi, mehnat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llabquvvatlash to'g'risidagi PF-5242 Farmonida ham xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an-analarini to'liq saqlab qolish va ko'paytirish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo'llabquvvatlash bo'yicha maqsadli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu asosda aholi, ayniqsa, yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalar bandligini ta'minlash maqsadida hunarmandchilik sohasida bajarilishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar belgilab berilgan. ¹

O'zbek xalq amaliy san'ati, ham san'at va ham hunardir. U asrlar davomida otabobolarimiz tomonidan ko'z qorachig'idek asrab-avaylab kelingan va hozirgi kunda yanada davom etib kelmoqda. O'tmishdagi qadriyatlarimiz xalqning bebaho madaniy merosidir. Temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Bobur asirga tushib qolgan vaqtida xotini (opasi ham deganlar bor ekan) unga asirlikdan qochishi uchun xaritani bosh kiyimiga chizib kiritib yuboradi. Shu bosh kiyimi orqali u asirlikdan qochishga erishadi. Yana bir rivoyatda aytilishicha, qadimda yurtimizda vabo tarqalib barcha odamlar nobud bo'la boshlaydi. Posdsho kim dardni davosini topsa boshidan oltin sochaman deb e'lon qiladi. Shunda bir mo'ysafid chol dori sifatida bir hovuch qalampir beradi va bu qalampir shunday og'ir dardga davo bo'ladi. Poshsho mukofot

¹Sh.L.Mamasoliyeva. Xalq hunarmandchiligi. O'quv qo'llanma.Samarqand.:2021. 3 b.

evaziga cholning bosh kiyimiga qalampir tasvirini tushurib berishlarini buyuradi. Shu tariqa bu tasvir bosh kiyimlariga tushirilib do'ppilarning guliga asos bo'ladi.

Dunyoning qaysi yurtida bo'lmasin o'zbek do'ppisini kiyib yurgan inson yo o'zbek, yo yurtimizda safar qilgan sayyoh bo'lishi mumkin. Chunki, o'zbek do'ppilarini ko'rgan odam beixtiyor ravishda uni kiyib ko'radi. Shu sababli bo'lsa kerak yurtimizga tashrif buyurgan mehmonlar o'zbek do'ppisidan o'zi bilan olib ketishga odatlangan. Yurtimizda do'ppini to'y-hashamlarda, odatiy turmush hayotimizda kiyib yuramiz. Hattoki, ko'pincha insonni marg'ilonlikmi, namanganlikmi, andijonlikmi, xullas qayerdan ekanligini do'ppisiga qarab ham bilib olish mumkin.² Ularda asrlar tajribasi jamlangan bo'lib, momolarimiz ijodiy mehnati mujassam topgan. Xuddi shu qatorda milliy qadryatlarimizni avloddan avlodga yetqazib kelayotgan hunarmand ayyolarimizni ko'plab sanab o'tishimiz mumkun.

Mehnat barcha zamonda inson bolasini yuksak maqsadga ko'targan. Iqlimxon Toshboyeva o'z faoliyati bilan nafaqat Surxon vohasiga balki Respublikaga tanilgan hunarmand tadbirkorlar sarasiga kiradi. Toshboyeva Iqlim 1952-yilning 18-dekabrida tavallud topgan. U bolaligidan mehnatda toblandi. Surxon elining ming yillar davomda shakllangan hunarmandchiligi serjilo milliy liboslari ko'zlarni quvonch va hayratlarga solgan. Iqlimxon ham yoshligidan milliy liboslarga mehr qo'ydi. Mehribon ustozlaridan bu hunarning sir asrorlarini o'rganib ulg'aydi, voyaga yetdi. Uning sirli va nurli qo'llari ila bunyod bo'lgan milliy liboslar qator ko'rgazmalarda namoyish etilmoqda. Iqlimxon tikkan milliy liboslarni san'atkorlaarimiz kiyib Yaponiya, Janubiy Korea, Turkiya, Xitoy kabi mamlakatlarda olqishga sazovor bo'lib qaytishmoqda.

Iqlimxon ayaning hunarmandchilik ishlari Termiz Davlat Universiteti, viloyat "Qo'g'irchoq teatri" ko'plab tumanlar va kollejlarda ansambli ishtirokchilari tomonidan kiyilib ko'zlarni quvonch va xayratlarga to'ldirmoqda. Iqlimxon Qoraqalpog'istonning "Ayqulash" ansambliga, Qashqadaryoning "Lolaqizg'aldoq" bolalar guruhiga, Toshkent shahridan "Abbos" guruhiga, O'zbekiston xalq artisti Rushana Sultonovaga, Shvetsariyalik Katya Danilaga, Surxon guruhiga, xonanda Hosila Rahimova guruhiga milliy liboslar tikib bergan. U "Do'ppi tikdim ipaklari tillodan" ko'rik tanlovida tumanda birinchi, viloyatda ikkinchi "Eng ulug' ustoz" naminiatsiyasida g'olib bo'lgan. Hunarmandimiz 2014-yilda "Eng yaxshi hunarmand kashtachi" nomzodligi bo'yicha "Shuhrat" medali sohibasi hamdir.

²Farangiz Ikromova . Boshimda tursa O'zbekim do'ppisi // INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. № 4. 2022. 53-56-bet



Iqlimxon Toshboyeva Mehribon ona, sevimli buvijon sifatida o'z hunarining sir asrorlarini farzandlariga va shogirdlariga o'rgatib kelmoqdalar. Hunarmandning tikkan so'zanalari, kashtali ko'ylaklari, ro'mollariyu do'ppilarida Surxon elining o'ziga xos milliyligi ufurib turadi.

Tillo qoshlar qoshingizda jilovlanar

Boshingizda zar do'ppilar tillolanar,

Iforlarga to'lib ketgan ostonalar,

Ostonamni chaman qilgan gulim qizim.³

Hunarmandimiz o'z qo'llari ila gilamlar, kiyimlar, turli zeb-ziynat taqinchoqlari, qizlar uchun jamalaklar, salla, turli xildagi do'ppilar va shu kabi ko'plab ijod namunalarini yaratgan. Surxondaryo do'ppilarning piltado'zi yoki to'ldirma, pulakcha yoki tangacha va shabanok yoki munchoqli do'ppi deb atalgan turlari ko'p tarqalgan bo'lib, hozirgacha xalqimizning boshidan tushmay kelmoqda.



Jamalak

Jamalak bu qadimdan qizlarimiz sochlari zeb berib turuvchi va sochlarni yig'ib chiroyli ko'rsatib turgan. Uning paxta jamalak, oddiy jamalak, munchoqli jamalak turlari mavjud. Jamalakni qizlarimiz asosan bahor fasli kelganda taqishadi. Jamalakni o'rilayotgan sochlarga qo'shib, soch bilan birga o'rib yuborishadi. Uning uzunligi 60-65 sm ni tashkil qiladi.

³Zulfiya Mo'minova. "Surxonning muxtarama ayollari". Toshkent-2014. 277-278 bet

Salla- bosh kiyimini qadimda ayyolarimiz kiyishgan. Uning kichik salla, katta salla turlari bo'lgan. Kichik sallani asosan uyda kiyishgan, katta sallani esa to'y marosimlarga kiyib borishgan. Sallaning tepa qismi bog'lab qo'yilgan, ayyolar undan hamyon sifatida, igna, ip, angushvona va shu kabi buyumlarini solib bog'lab qo'yishgan. Sallaning ichidan kiyiladigan narsasi ham bo'lgan va u pesh deb nomlangan. Pesh ayyolarimizning bo'yin qismini yopib turgan va issiqdan, sovuqdan himoya qilgan.

Hunarmandimizning boysun do'ppi deb nomlanga do'ppisi butun o'zbek xalqiga ma'lum va mashhur bo'lib, uning asosiy xususiyati xalq turmush urf-odatlarini, tasavvurlari bilan jonli aloqadorligidir.



Do'ppida foydalanilgan yorqin kalorit va o'ziga xos gullar va boshqa turli belgilar tasviri bilan alohida xususiyatlidir. Qizil, ko'k, yashil, sariq ranglarning mo'lligi yengillik va nafislik baxsh etadi. Bu esa Boysun kashtachilik maktabining g'oyat serqirra ekanligidan dalolat beradi.

Boysun do'ppisi

Xulosa qilib aytganda butun olamga o'rnak bo'la oladigan madaniyatimizni rivojlantirib kelajak avlodga sof va zamonga hamnafas holda yetib borishi o'zimizning qo'limizda! Yoshlar o'rtasida do'ppi kiyishni targ'ib qilish maqsadida 2021-yil 8-dekabrdan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri O.Nazarbekov tashabbusi bilan madaniyat hodimlari odatiy ish kunida do'ppida yurishlari belgilandi. Xalqimizda aytilganidek "bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi". Omon boshlarimizdan do'ppi arimasin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.L.Mamasoliyeva. Xalq hunarmandchiligi. O'quv qo'llanma .Samarqand: .2021. 3 b
2. Farangiz Ikromova . Boshimda tursa O'zbekim do'ppisi .// TERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. .№ 4. 2022. 53-56-bet
3. Zulfiya Mo'minova. "Surxonning muxtarama ayollari " .Toshkent-2014. 277-278 bet
4. Nurullayeva Z. O'zbek do'ppilari va ularni ekspozitsiyada namoyish etish masalalari mavzusidagi. Bitiruv malakaviy ishi. T.: 2020. 32-33 bet
5. Sodiqova N., G'aybullayeva Y. O'zbek milliy bosh kiyimlari XIX-XX asrlar. Toshkent.: 2014. 237-238 bet.

6. Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич, & Назирбекова Шахноза Ботировна (2017). Компьютеризация и информатизация художественно- практические занятия в обучении студентов. *Инновации в науке*, (12 (73)), 21-23.
7. Абдирасилов, С. Ф., & Хисамиева, С. (2016). Воспитание школьников в духе патриотизма средствами изобразительного искусства в узбекской школе. *Молодой ученый*, (1), 667-670.
8. Fayzullaevich, A. S. (2021). The use of the artistic traditions of Uzbek folk art in the lessons of fine art. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 54-61.
9. Абдирасилов, С. Ф. (2016). МЕТОДИЧЕСКОЕ И ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ ШКОЛЫ В СОВРЕМЕННОМ ОБУЧЕНИИ. *Научная дискуссия: вопросы педагогики и психологии*, (4-1), 125-133.
10. Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич (2016). Художественные традиции как основа профессионального мастерства. *Наука и образование сегодня*, (2 (3)), 63-69.
11. Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич, Назирбекова Шахноза Ботировна, & Махкамова Саодат Бахтияровна (2016). Художественно-культурные традиции узбекского народного искусства на уроках изобразительного искусства. *Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии*, (11 (68)), 32-42.
12. Abdirasilov, S. F. (2022). Patriotic Education of Schoolchildren by Means of National Fine Arts. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(5), 52-58.
13. Abdusalamkhodjaev Nazimkhodja Nizamkhodjaevich. (2022). HISTORICAL PERSONS IN THE WORKS OF MALIK NABIEV. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 117–124. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-20>
14. Nazirbekova Shahnoza Batirovna. (2022). In the Practice of Plein Air, the Fine Arts Occupies an Important Place and Priority. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 8, 127–131. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/zjssh/article/view/1701>
15. Akhmedova, M., Inoyatova, Z., Ergasheva, G., Aripova, G., & Kayumova, S. (2020). Primary classes based on media technologies represent an international rating system for teacher control. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(4), 3872-3885.
16. Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 285-288. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424>
17. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
18. Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. *Spanish Journal of Society and Sustainability*, 1, 1-8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>

19. Khamidovich, T. N., Nozimovich, T. N., Ibrohimovna, Y. N., Ravshanovich, J. R., & Kholmuratovich, M. K. (2019). DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES THROUGH TEACHING" LANDSCAPE PAINTING. Journal of Critical Reviews, 7(6), 2020.

